



2026 y. "27" 01 2026 - sonli

Toshkent sh.

**“O‘zmilliybank” AJ xodimlarining  
2026 yilda “Korrupsiyaga qarshi kurashish” yo‘nalishi  
bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabrda Oliy majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida keltirilgan ma‘lumot va belgilangan vazifalardan kelib chiqib, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PQ-240-sonli va 2024 yil 21 iyundagi PQ-228 sonli Qarorlari talablari, Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan “Yo‘l xaritasi”ga asosan tizimda “O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnomasi (2022y. 10 mart, 604-son bilan ro‘yxatga olingan) ijrosini ta‘minlash hamda Bank xodimlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida bilim saviyalari va malakalarini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilsin:

1. “O‘zmilliybank” AJ xodimlari uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishi bo‘yicha umumiy va maxsus O‘quv dasturi 1-ilovaga, umumiy va maxsus O‘quv rejasi 2-ilovaga muvofiq **tasdiqlansin.**

2. Mashg‘ulotlar an‘anaviy hamda zamonaviy interaktiv shakllarni qo‘llagan tarzda tashkillashtirilsin. Bunda, “O‘zmilliybank” AJda joriy etilgan SAP o‘qitish tizimi imkoniyatlaridan hamda elektron pochta orqali tegishli o‘quv materiallarini yuborish amaliyotidan keng foydalanilsin va hisobotlar yuritilsin.

**3. Xodimlar bilan ishlash departamenti (A. Malibekova) Komplaens tavakkalchiligi blokining Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi bilan hamkorlikda:**

- Bankning tuzilmaviy bo‘linmalarida korrupsion xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan lavozimlarda faoliyat yuritayotgan xodimlarni ISO 37001 standartiga oid o‘qitilishini ta‘minlash maqsadida mashg‘ulotlarni tashkillashtirilsin;

- Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi bilim saviyalari va malakalarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi virtual kurslarida o‘qitilishi ta‘minlansin;

- Bankning barcha hududiy Bosh boshqarmalariga O'quv dasturi hamda O'quv rejalari talablarini amalga oshirishda nazariy va amaliy yordam ko'rsatsin, ijrosi nazoratga olinsin.

4. Komplaens tavakkalchiligi bloki Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi bevosita o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarini talab darajasida va yuqori saviyada tashkil etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligidan tajribali mutaxassislarni jalb qilinishi hamda ular tomonidan tayyorlangan o'quv materiallaridan keng foydalanishni **tashkil etilsin.**

5. Bankning Bosh ofis departamentlari, mustaqil boshqarmalari va bo'limlari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bosh boshqarmasi, Toshkent shahar Bosh boshqarmasi va hududiy Bosh boshqarmalari boshqaruvchilari belgilangan muddatlarda xodimlarning mashg'ulotlarda ishtirok etishlari hamda masofaviy o'quv materallarini sifatli o'zlashtirishlari uchun **mas'ul ekanliklari xaqida alohida ogohlantiraman.**

6. Xodimlar bilan ishlash departamenti tomonidan o'quv natijalari to'g'risida 2026 yilning har choragi yakunlari bo'yicha Boshqaruv Raisiga axborot kiritib borilishi ta'minlansin.

7. Mazkur Farmoyishda belgilangan vazifalar ijrosi to'laqonli ta'minlanishini talab etishda Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi mas'ul ekanligi belgilagan holda, umumiy nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

**Boshqaruv Raisining  
birinchi o'rinbosari**



**S.Usmanbekov**



“O‘zmilliybank” AJ Boshqaruv Raisining  
 2026 yil “27” yanvardan  
 255A - sonli Farmoyishiga  
 1-ilova

**“O‘zmilliybank” AJ xodimlariga 2026 yil uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishi bo‘yicha umumiy va maxsus O‘QUV DASTURI**

t/r	Mavzular nomi	Jami	Mashg‘ulotlar turlari bo‘yicha soatlar miqdori		
			Masofaviy mashg‘ulot	Seminar-trening	Amaliy mashg‘ulot
<b>1-modul: Bankning barcha xodimlar uchun UMUMIY mavzular</b>					
1.	Korrupsiya tushunchasi, kelib chiqish sabablari va huquqiy tabiati.	2	2	-	-
2.	“O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati”	2	2	-	-
3.	“O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida korrupsiya uchun javobgarlik”	2	2	-	-
4.	O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi” Qonunining mazmun-mohiyati.	2	2	-	-
5.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 dekabrda PF-270-sonli Farmoni mazmun-mohiyati haqida Seminar-trening			2	
6.	O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi bilan hamkorlikda “9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” ga bag‘ishlangan Seminar mashg‘uloti o‘tkazish			2	
<b>2- modul: Bank xodimlarining etika va xulq-atvori qoidalarini bo‘yicha UMUMIY o‘qitish</b>					
1.	“O‘zmilliybank” AJ ning Korporativ etika kodeksi talablari	2	2		
2.	“O‘zmilliybank” AJ ning Odob-axloq qoidalarini talablari	2	2		

t/r	Mavzular nomi	Jami	Mashg'ulotlar turlari bo'yicha soatlar miqdori		
			Masofaviy mashg'ulot	Seminar-trening	Amaliy mashg'ulot
<b>3- modul: Korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo'lgan lavozimlar uchun MAXSUS mavzular</b>					
1.	Bank sohasida manfaatlar to'qnashuvi xolatlarini tartibga solish chora-tadbirlari.	2	2	-	-
2.	Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va mexanizmlari, huquqbuzarliklar uchun javobgarlik	2	2	-	-
<b>4- modul: Komplains-nazorat tizimi xodimlari uchun maxsus mavzular</b>					
1.	"O'zmilliybank" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishi bo'yicha ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish asoslari. Mazkur yo'nalishda joriy etilgan me'yoriy xujjatlar ijrosini ta'minlashda bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar.	2	2	-	-
2.	"O'zmilliybank" AJ tizimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda PQ-270-son qarori ijrosini ta'minlash.	2	-	2	-
<b>Jami soatlar:</b>		<b>20</b>	<b>18</b>	<b>6</b>	<b>-</b>

**Komplains tavakkalchiligi blogi Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi boshlig'i v.v.b.**



**H. Usmonov**

**“O‘zmilliybank” AJ xodimlari uchun 2026 yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishi bo‘yicha umumiy va maxsus  
 O‘QUV REJASI**

T.r.	Xodimlar kategoriyasi	Mashg‘ulot mavzusi	O‘qitish muddati	Mas‘ul
1.	1- modul: Bankning barcha xodimlar uchun umumiy mavzular	Korrupsiya tushunchasi, kelib chiqish sabablari va huquqiy tabiati.	1-chorak davomida, Electron pochta orqali	O‘.Rustamov
		“O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati”	1-chorak davomida, SAP dasturi orqali	Xodimlar bilan ishlash departamenti O‘.Rustamov
		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 dekabrda PF-270-sonli Farmoni mazmun-mohiyati haqida Seminar-trening	1-chorak davomida, Seminar mashg‘uloti	KTB KOO boshqarmasi, O‘R Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi mutaxassislari
1.		“O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida korrupsiya uchun javobgarlik”	2-chorak davomida, SAP dasturi orqali	Xodimlar bilan ishlash departamenti O‘.Rustamov
		O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi” Qonunining mazmun-mohiyati.	3-chorak davomida, SAP dasturi orqali	Xodimlar bilan ishlash departamenti O‘.Rustamov
		O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi bilan hamkorlikda “9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan Seminar mashg‘uloti o‘tkazish	4-chorak davomida, Seminar mashg‘uloti	KTB KOO boshqarmasi, O‘R Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi mutaxassislari
2.	2- modul: Bank xodimlarining	“O‘zmilliybank” AJ ning Korporativ etika kodeksi talablari	SAP dasturi orqali, O‘quv markazi rejasiga asosan	Xodimlar bilan ishlash departamenti

T.r.	Xodimlar kategoriyasi	Mashg'ulot mavzusi	O'qitish muddati	Mas'ul
	etika va xulq-atvori qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish	"O'zmilliybank" AJ ning Odob-axloq qoidalari talablari	SAP dasturi orqali, O'quv markazi rejasiga asosan	Xodimlar bilan ishlash departamenti
3.	3- modul: Korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo'lgan lavozimlar uchun maxsus mavzular	Bank sohasida manfaatlar to'qnashuvi xolatlarini tartibga solish chora-tadbirlari. Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va mexanizmlari, huquqbuzarliklar uchun javobgarlik	SAP dasturi orqali, Electron pochta orqali SAP dasturi orqali, Electron pochta orqali	KTB KOO boshqarmasi, KTB KOO boshqarmasi,
4.	4- modul: Komplains-nazorat tizimi xodimlari uchun maxsus mavzular	"O'zmilliybank" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishi bo'yicha ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish asoslari. "O'zmilliybank" AJ tizimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 dekabrda PF-270-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash.	Vebinar mashg'uloti, avgust 2026y. Trening, fevral 2026y.	H.Usmonov V. Akramov H.Usmonov

**Komplayens tавakkalchiligi blogi Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi boshlig'i v.v.b.**



**H.Usmonov**